

«Ishonch telefoni» xizmati Reglamenti

1. Xizmat (pasport) turi

1.1. Xizmat nomi

Fuqaro murojaatlarini «O'zeltexsanoat aksiyadorlik» kompaniyasi «Ishonch telefoni» xizmati orqali qabul qilish.

1.2. Xizmat natijasi

Fuqarolardan qabul qilingan murojaatlarni «O'zeltexsanoat aksiyadorlik» kompaniyasi tomonidan ko'rib chiqilishi.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va blank olish joyi

«O'zeltexsanoat aksiyadorlik» kompaniyasi.

100047, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi 13 uy

1.4. Normativ hujjat

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar murojaatlari to'g'risida" gi Qonuni.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Yuridik va jismoniy shaxs - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda chet el davlati fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

1.6. Murojaatlarni qabul qilish

Dushanba kunidan jumaga qadar 9:00dan – 18:00 gacha.

1.7. Ijro muddati

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar murojaatlari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

2. Xizmatdan foydalanish ma'lumotlari

2.1. Umumiy ma'lumot

Fuqarolar uchun «Ishonch telefoni» haqidagi ma'lumotlar «O'zeltexsanoat aksiyadorlik» kompaniyasining rasmiy www.uzeltexsanoat.uz veb saytida joylashtirilgan.

2.2. Murojaat haqida ma'lumot olish

Xizmat qo'ng'iroq qilish orqali amalga oshiriladi.

2.3. Xizmat ko'rsatish joyi haqida ma'lumot

100047, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi 13 uy.

2.4. Foydalaniladigan blank (forma) hujjatlar

Fuqarolarning «Ishonch telefoni» orqali tushgan murojaatlarni kompaniyaning ro'yxatga olish daftarida ro'yxatga kiritiladi.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Murojaatlarni qabul qilish dushanba kunidan juma kunigacha 9:00dan – 18:00 gacha olib boriladi.

3.2. Kutish shartlari

Telefon qo'ng'irog'i orqali xizmat ko'rsatish belgilangan tartibda olib boriladi.

4. Xizmat faoliyati olib borilishi

4.1. Zarur hujjatlar

«Ishonch telefoni» orqali murojaat qilishda fuqarolar familiyasi, ismi, otasining ismini, yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda murojaatning mohiyati va mazmunini bayon qilishi shart.

Familiya (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar murojaatda ko'rsatilmagan bo'lsa yoki yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lgan taqdirda ushbu murojaat anonim hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

4.2. Xizmat uchun to'lov

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Rad etish sabablari

Noqonuniy xatti-xarakatlar yuzasidan yoki ushbu fuqaro murojaati yuzasidan qaror qabul qilingan hamda ko'rib chiqilishi hokimlik vakolatiga kirmaydigan murojaatlar rad etilishi mumkin.

5. Ta'minlash sifatligi

5.1. Sifatsiz xizmat bo'yicha shikoyat

Fuqarolar o'zlarining murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish asossiz rad etilishi ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori organga shikoyat qilishga haqdirlar.